XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2023- yil yanvar-mart oylarida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so‘rab 13877 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi shahrida (1388 kishi), Koson (1157 kishi), Shahrisabz (1090 kishi), Yakkabog‘ (1021 kishi), Qamashi (1019 kishi), G‘uzor (988 kishi), Qarshi (979 kishi), Chiroqchi (927 kishi), Dehqonobod (847 kishi) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 6573 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko‘rsatkich, Qarshi shahrida (779 kishi), Koson (629 kishi), Qamashi (565 kishi), G‘uzor (556 kishi), Qarshi (457 kishi), Chiroqchi (455 kishi), Yakkabog‘ (382 kishi), Shahrisabz (373 kishi), Ko‘kdala (367 kishi), tumanlarida yuqori darajada bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlarida ro‘yxatga olingan fuqarolardan 738 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni
(kishi)



Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni
(*2023- yil 1- aprel holatiga, kishi*)

	Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etganlar soni		*jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar*		*ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni*	
	2022- yil yanvar-mart	*2023- yil yanvar-mart*	*2022- yil yanvar-mart*	*2023- yil yanvar-mart*	*2022- yil yanvar-mart*	*2023- yil yanvar-mart*
Viloyat bo‘yicha:	**5832**	**13 877**	**532**	**738**	**664**	**731**
shaharlar:						
Qarshi	535	1 388	26	46	59	37
Shahrisabz	235	606	68	36	24	32
tumanlar:						
G‘uzor	415	988	108	59	76	56
Dehqonobod	159	847	11	12	11	9
Qamashi	389	1 019	44	51	14	37
Qarshi	502	979	22	19	83	17
Koson	477	1 157	2	83	35	143
Kitob	420	601	34	3	4	-
Mirishkor	149	612	26	67	25	117
Muborak	315	518	17	21	12	18
Nishon	745	785	43	135	-	125
Kasbi	227	785	-	34	135	8
Ko‘kdala	-	554	-	25	-	14
Chiroqchi	644	927	16	56	117	45
Shahrisabz	193	1 090	70	45	21	37
Yakkabog‘	427	1 021	45	46	48	36

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilib kelganlardan ro‘yxatga olinganlar ulushi Qarshi shahri va Koson, Qarshi, Shahrisabz, Qamashi, G‘uzor tumanlarida yuqori bo‘lgan.

Ish bilan ta'minlangan aholi soni[1)]

	2022- yil yanvar-mart	*2023- yil yanvar-mart*
Viloyat bo'yicha:	**5481**	**6 573**
shaharlar:		
Qarshi	677	779
Shahrisabz	321	226
tumanlar:		
G'uzor	665	556
Dehqonobod	64	324
Qamashi	310	565
Qarshi	569	457
Koson	142	629
Kitob	1088	290
Mirishkor	32	254
Muborak	256	253
Nishon	391	336
Kasbi	447	327
Ko'kdala	-	367
Chiroqchi	175	455
Shahrisabz	152	373
Yakkabog'	192	382

[1)]Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida

Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi [1)]

(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Qarshi shahrida, Qarshi, Qamashi, Koson, G'uzor, Chiroqchi, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

1)*Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida*

O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2023- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 092,7 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2023- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Qarshi shahrida 4 076,1 ming so‘m (Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 131,8 foiz), Nishon tumanida 4 062,2 ming so‘m (131,3 foiz), Muborak tumanida 3 702,3 ming so‘m (119,7 foiz), Dehqonobod tumanida 3 283,7 ming so‘m (106,2 foiz) va G‘uzor tumanida 3 235,8 ming so‘m (104,6 foiz) ni tashkil etgan.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Viloyat bo‘yicha jami	**236490**	**2 176,3**	**3 092,7**
shu jumladan:			
Sanoat	25 193	389,2	5 149,4
Qurilish	4 702	72,4	5 132,6
Savdo	2 044	18,0	2 939,5
Tashish va saqlash	5 907	95,9	5 412,1
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	178	1,1	2 046,0
Axborot va aloqa	775	16,1	6 927,7
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	1 961	47,1	7 998,5
Ta’lim	110 706	834,5	2 512,5
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	52 396	338,2	2 151,4
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 077	20,1	3 231,1
Boshqa faoliyat turlari	30 551	343,7	3 750,4

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 092,7 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,1 % ga o‘sgan.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilikda 7 998,5 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,6 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 6 927,7 ming so’m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,2 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 5 412,1 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 75,0 % ga yuqori) , Sanoat sohasida 5 149,4 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 66,5 % ga yuqori), hamda Qurilish sohasida 5 132,6 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 66,0 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	2022- yil	*2023- yil*	*O‘sish sur’ati, % da*
Qashqadaryo viloyati	**2 688,0**	**3 092,7**	**115,1**
shaharlar:			
Qarshi sh.	3 606,1	4 076,1	113,0
Shahrisabz sh.	2 121,9	2 745,3	129,4
tumanlar:			
G‘uzor	3 305,4	3 235,8	97,9
Dehqonobod	2 332,9	3 283,7	140,8
Qamashi	2 062,4	2 260,2	109,6
Qarshi	2 095,6	2 402,0	114,6
Koson	2 234,6	2 513,5	112,5
Kitob	2 098,8	2 457,7	117,1
Mirishkor	2 094,6	2 690,8	128,5
Muborak	3 464,6	3 702,3	106,9
Nishon	2 692,0	4 062,2	150,9
Kasbi	2 229,4	2 510,6	112,6
Ko‘kdala	-	2 402,8	-
Chiroqchi	2 337,4	2 679,7	114,6
Shahrisabz	2 291,9	2 378,2	103,8
Yakkabog‘	2 141,1	2 291,0	107,0

Ish haqi. 2023- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quydagilarni ko‘rsatmoqda.

Ta‘lim sohasida 1828 ta mussasada 110 706 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,8 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 834,5 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 38,3 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 512,5 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 13,0 % ga o‘sgan.

Ta‘lim iqtisodiy faoliyati bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 45 ta korxonada 25193 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,7 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 389**,2** mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 17,9% ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 149,4 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 16,7 % ga o‘sgan.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 9 077,4 ming so‘mni (Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,9 % ga yuqori), Dehqonobod tumanida 8 347,2 ming so‘mni (2,7 % ga), G‘uzor tumanida 6 350,4 ming so‘mni (2,0 % ga), Muborak tumanida 5 437,5 ming so‘mni (175,8%) etgan bo‘lsa, Shahrisabz tumanida 2 717,5 ming so‘mni (87,9 %), Kasbi tumanida 2 593,8 ming so‘mni (83,9%), Kitob tumanida 2 376,0 ming so‘mni (76,8 %), hamda Shahrisabz shahrida 2 005,4 ming so‘mni (64,8 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida 105 ta muassasada 52396 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 22,2 % ni) xodim ishlagan bo‘lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 338,2 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,5 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 151,4 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,8 % ga o‘sgan.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘mda)



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini Viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, Qashqadaryoda ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Mirishkor tumanida 3 195,9 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 103,3 %) tashkil etgan bo‘lsa, Koson tumanida 1 888,1 ming so‘mni (61,1 %), Dehqonobod tumanida 1 819,6 ming so‘mni (58,8 %), Nishon tumanida 1 809,8 ming so‘mni (58,5 %), Qarshi tumanida 1 808,4 ming so‘mni (58,5 %) va Qamashi tumanida 1 592,1 ming so‘mni (51,5 %) tashkil etib boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

San’at, ko‘ngil ochish va dam olish iqtisodiy faoliyat turida 53 ta muassasada 2077 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 20,1 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,9 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 3231,1 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 123,6 % ni tashkil etgan.

San’at, ko‘ngil ochish va dam olish faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(*2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)*



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 4 260,6 ming so‘mni (viloyatdaga o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 137,8 %), Qarshi shahrida 4 043,0 ming so‘mni (viloyatdaga o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 130,7 %) kuzatildi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati

(2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)



ming so'm

Sanoat
5 149,4

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik
7 998,5

Qurilish
5 132,6

Ta‘lim 2 512,5

Savdo
2 939,5

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish
2 151,4

Tashish va saqlash
5 412,1

San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish
3 231,1

Axborot va aloqa
6 927,7

Boshqa iqtisodiy faoliyat turlari
3 750,4